2-BO‘LIM.
TARBIYA PSIXOLOGIYASI

TURLI YOSHDAGI O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mardonov Shukurullo Qo‘ldoshevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri, p.f.d., professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik maktab yoshi va o‘smirlik davridagi o‘quvchilarning psixologik, fiziologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari tahlil qilingan. Unda o‘quvchilarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarining yoshga xos rivojlanishi, shuningdek, axloqiy fazilatlar, ijtimoiy xulq-atvor va dunyoqarashning shakllanishida ta’lim-tarbiya jarayonining o‘rni yoritilgan. Maqolada boshlang‘ich maktab yoshida ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari hamda o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ruhiy, ijtimoiy va axloqiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: kichik maktab yoshi, o‘smirlik davri, psixologik rivojlanish, fiziologik rivojlanish, bilish jarayonlari, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, axloqiy tarbiya, ijtimoiy xulq-atvor, dunyoqarash, shaxs rivojlanishi.

Аннотация. В статье анализируются психологические, физиологические и социальные особенности развития учащихся младшего школьного и подросткового возраста. Рассматривается возрастная динамика восприятия, внимания, памяти, мышления и речи, а также роль образовательного и воспитательного процесса в формировании нравственных качеств, социального поведения и мировоззрения учащихся. Обосновывается необходимость совершенствования педагогических подходов с учётом возможностей формирования положительных нравственных качеств в младшем школьном возрасте и психологических, социальных и нравственных изменений, характерных для подросткового периода.

Ключевые слова: младший школьный возраст, подростковый период, психологическое развитие, физиологическое развитие, познавательные процессы, восприятие, внимание, память, мышление, нравственное воспитание, социальное поведение,

мировоззрение, развитие личности.

Abstract. The article analyzes the psychological, physiological, and social development characteristics of primary school children and adolescents. It examines age-related changes in perception, attention, memory, thinking, and speech, as well as the role of education and upbringing in developing students' moral qualities, social behavior, and worldview. The article emphasizes the need to improve pedagogical approaches by considering the opportunities for developing positive moral qualities in primary school age and the psychological, social, and moral changes characteristic of adolescence.

Keywords: primary school age, adolescence, psychological development, physiological development, cognitive processes, perception, attention, memory, thinking, moral education, social behavior, worldview, personal development.

Kichik maktab yoshi o‘z ichiga 6 dan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Bola olti yoshida ilk bor “katta o‘zgarish”larga duch keladi. Maktab yoshiga o‘tish uning kundalik faoliyati, hayot tarzi, muloqoti va boshqa odamlar bilan munosabatlarida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu davrda, ayniqsa, uning o‘qishi yetakchi faoliyatga aylanadi, hayot tarzi o‘zgaradi, mas’uliyat hissi paydo bo‘ladi, boshqalar bilan yangicha tarzda munosabat o‘rnatadi. Kichik maktab o‘quvchilari biologik jihatdan ham ikkinchi davrni boshdan kechiradi: ularning o‘sishi sekinlashadi, tana og‘irligi sezilarli darajada oshadi, suyagi qattiqlasha boshlaydi. Mushaklar tizimi intensiv rivojlanadi. Qo‘lidagi kichik mushaklar rivojlana borgani sayin nozik harakatlar qobiliyati paydo bo‘la boshlaydi. Buning natijasida bolada tez yozish qobiliyati paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich maktab yoshida asab tizimi yaxshilanadi, miyaning katta yarim sharlari funksiyalari intensiv rivojlanadi, mushaklarning analitik va sintetik funksiyalari kuchayadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bola miyasi og‘irligi kattalarnikiga deyarli yetib qoladi va o‘rtacha 1400 gramni tashkil etadi, bola psixikasi tez rivojlanadi. Qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgara boshlaydi: tormozlanish kuchaya boradi, lekin qo‘zg‘alish jarayoni hali ustunlik qiladi. Hissiy organlarning aniqligi oshadi. Maktabgacha yoshga nisbatan rangga sezgirlik 45% ga oshadi, bo‘g‘im-mushak hissi 50% ga, ko‘rish hissi 80% ga yaxshilanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilish faoliyati, asosan, o‘quv jarayonida sodir bo‘ladi. Shu bois bu davrda muloqot doirasini kengaytirish muhim sanaladi. Boladagi tez rivojlanish, maktab o‘quvchilariga xos va mos bo‘lgan ko‘plab yangi fazilatlar o‘qituvchilardan barcha ta’lim faoliyatiga jiddiy e’tibor qaratishni talab qiladi. Kichik maktab o‘qu-

vchilari idroki beqarorlik va tashkilotchilik yetishmasligi bilan ajralib turadi, lekin shu bilan bir paytda o‘tkirlik, topqirlik va “tafakkur qiziquvchanligi” holatlari ham kuzatiladi. Idrokning nisbatan past darajada farqlanishi va tahlil zaifligi qisman idrok emotsionalligi bilan qoplanadi. Shu bois tajribali o‘qituvchilar maktab o‘quvchilarini bu davrda bosqichma-bosqich maqsadli tinglash va kuzatishga o‘rgatadi, ularning kuzatish qobiliyatini rivojlantiradi. Bola maktabning birinchi bosqichini idrokning maqsadli faoliyatga aylanib, murakkab va chuqurlashib borishi, tahlil va farqlay boshlashi va uyushgan xarakterga ega bo‘lishi bilan yakunlaydi.

Kichik maktab o‘quvchilari diqqat-e’tibori hali to‘liq barqarorlashmagan va cheklangan holatda bo‘ladi. Shu bois boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash jarayoni, asosan, ularda diqqat-e’tibor ko‘nikmasi va madaniyatini shakllantirishga qaratiladi. Maktab hayoti boladan doimiy ravishda e’tibor va diqqatni jamlash uchun ixtiyoriy harakatni talab qiladi. Ixtiyoriy e’tibor boshqa funksiyalar, birinchi navbatda, motivatsiya va samarali ta’lim bilan uyg‘un rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tafakkuri hissiy tasavvurdan mavhum-mantiqiygacha rivojlanadi. Mashhur pedagog olim K.D. Ushinskiy bu davrda “Bola shakllar, ranglar, tovushlar, umuman, hislar haqida o‘ylaydi”, deb maktab o‘z faoliyatining dastlabki bosqichida bolalar tafakkurining ushbu xususiyatlariga asoslanishi va e’tibor qaratishi lozimligini ta’kidlaydi. Maktabning birinchi bosqichdagi vazifasi - bola tafakkurini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, aql-zakovatni sabab va oqibat munosabatlarini tushunish darajasiga ko‘tarishdir.

Mashhur pedagog L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, maktab yoshidagi bolaning aqli nisbatan zaif, lekin sezgi va xotira funksiyalari bilan solishtirganda ancha yaxshi rivoj-langan bo'ladi. Odatda maktabda bola aqli nisbatan tez rivojlanadi. Bu yerda, albatta, maktab va o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi.

Bola tafakkuri uning nutqi bilan birgalikda rivojlanadi. Bugungi to‘rtinchi sinf o‘quvchisi lug‘at boyligi taxminan 3500-4000 so‘zdan iborat. Maktab ta‘limi ta’siri nafaqat bolaning so‘z boyligi sezilarli darajada oshganida, balki uning o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda ifoda etish kabi juda muhim qobiliyatni qay darajada egallashida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchining chuqur bilim olishida xotira katta ahamiyatga ega. Birinchi bosqich maktab o‘quvchisining tabiiy imkoniyati, ya'ni miya faoliyati plastik xususiyaga ega bo'ladi, ayniqsa, so'zma-so'z yodlash vazifasini oson uddalay oladi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bola 15 ta jumladan 3-5 tasini, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi esa 6-8 tasini





eslab qoladi. Uning xotirasi, asosan, vizual va majoziy xarakterga ega. Qiziqarli, aniq va jonli material, shubhasiz, tez esda qoladi. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘z xotirasini qanday boshqarish va bo‘ysundirishni bilmaydi.

Kichik maktab o‘quvchisi shaxsini shakllantirish kattalar (o‘qituvchilar) va tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan yangi munosabatlar, yangi faoliyat turlari ta’lim, o‘zaro muloqot, jamoa (maktab miqyosida sinf) ga qo‘shilish ta’siri ostida sodir bo‘ladi. U ijtimoiy tuyg‘ular elementlari - ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari (jamoaga qo‘shilish, harakatlar uchun mas’uliyat, do‘stlik, o‘zaro yordam va boshqalar)ni rivojlantiradi. Boshlang‘ich maktab yoshi axloqiy fazilat va ijobiy xususiyatlarni shakllantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Axloqiy xulq-atvor asoslari boshlang‘ich maktabda, ayniqsa, bola shaxsini ijtimoiylashtirish jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Kichik maktab o‘quvchilarini imkoniyat doirasida oqilona tashkil etilgan, samarali mehnatga jalb qilish kerak. Bu uning shaxs sifatida ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Bolalar qiladigan ish, oddatda, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, kattalar yoki katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga yordam berish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bolalar tashabbus va raqobatbardoshlik xususiyatlari yorqin namoyon bo‘ladigan ish va o‘yinlar orqali yaxshi natijalarga erishishi mumkin.

O‘rta maktab yoshi o‘z ichiga 10-11 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilarni qamrab olib, bolalikdan o'smirlikka o'tish davri sanaladi. U maktab ta'limining ikkinchi bosqichi yoki darajasiga to'g'ri keladi. Bu davr bola hayotiy faoliyati umumiy o'sishi va organizmining chuqur qayta tuzilishi bilan tavsiflanadi.

Bu yoshda o‘quvchilar organizmining nisbatan tez o‘sishi va rivojlanishi sodir bo‘ladi. Eng avvalo, bo‘y o‘sishi kuzatiladi: o‘g‘il bolalarda yiliga 6–10 sm, qizlarda esa 6–8 santimetrgacha o‘sadi. Ayniqsa, 15 yoshli o‘g‘il bolalar tez o‘sa boshlaydi: ularning bo‘yi 20–25 sm ga

oshadi. 13 yoshli qizlarda ham ana shunday jarayon kuzatiladi.

Tananing mustahkamlanishi jarayoni davom etadi, suyaklar elastiklik va qattiqlikka ega bo‘ladi. Mushaklar kuchi sezilarli darajada oshadi. Ichki organlar rivojlanishi notekis kechadi, qon tomirlarining o‘sishi yurak o‘sishiga muvofiq kelmaydi. Bu esa uning faoliyat ritmi buzilishi va yurak urishi tezlashishiga olib keladi. O‘smir o‘pkasi, garchi uning hayotiy kuchi (sig‘imi) 3400 kub santimetrgacha ko‘tarilsa-da, lekin tez rivojlanmaydi. O‘smirning nafas olishi tezlashadi. O‘rta maktab yoshidagi bolaning notekis jismoniy rivojlanishi uning xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Ular bu davrda nisbatan ko‘p imo-ishora qiladilar, sa’y-harakatlarida tezlik, shoshilish alomatlari kuzatiladi.

O‘smirlikning o‘ziga xos xususiyati - bola jinsiy balog‘atga erishadi. Qizlar uchun bu o‘n bir yoshdan, o‘g‘il bolalar uchun esa o‘n ikki yoki o‘n uch yoshdan boshlanadi. Balog‘at yoshi tana rivojiga jiddiy ta’sir etadi, ichki muvozanatni buzadi, yangi tajribalar paydo qiladi. O‘smirlik davrida asab tizimi rivoji davom etadi. O‘smir miyasi og‘irligi va hajmi kattalarnikidan unchalik farq qilmaydi. Bu davrda ong roli kuchayadi, miya yarim sharlarining instinkt va hissiyotlar ustidan nazorati ortadi. O‘smir idroki kichik maktab o‘quvchisinikiga nisbatan maqsadli, rejali va uyushgan bo‘ladi. U ba’zan nozikligi va chuqurligi bilan ajralib turadi, ba’zida esa psixologlar ta’kidlaganidek, yuzakiligi bilan hayrat uyg‘otadi. O‘smirning, ayniqsa, kuzatilayotgan ob’ektga nisbatan munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bois yon-atrofdagi hayotni idrok etishni o‘quv materiali bilan bog‘lay olmaslik o‘rta maktab o‘quvchilariga xos xususiyatlardan biri sanaladi. O‘rta maktab yoshidagi o‘quvchilarni qiziqarli dars yoki mashg‘ulotlar o‘ziga tez jalb qiladi va ular uzoq vaqt davomida bitta material yoki hodisaga e’tibor qaratishlari mumkin. Ammo ozgina qo‘zg‘aluvchanlik, g‘ayrioddiy va yorqin narsalarga qiziqish e’tiborning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. O‘smirlik davrida aqliy faoliyatda ham sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Fikrlash tarzi yanada tizimli, izchil va yetuk bo‘ladi. Mavhum fikrlash qobiliyati yaxshilanadi: aniq-majoziy fikrlash bilan mavhum fikrlash o‘rtasidagi nisbat ikkinchisi foydasiga o‘zgaradi. O‘smir tafakkuri yangi, ya’ni tanqidiy qarash xususiyatiga ega bo‘ladi. O‘smir endi o‘qituvchi yoki darslikka ko‘r-ko‘rona tayanmaydi: o‘z fikriga ega bo‘lishga intiladi, nizo va e’tirozlarga moyil bo‘ladi. O‘rta maktab yoshi ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun eng qulay davr sanaladi.

Fikriy rivojlanish jarayoni o‘smir nutqidagi o‘zgarish bilan uzviy holatda sodir bo‘ladi. Unda to‘g‘ri ta‘rif berish, mantiqiy asoslash va ko‘rgazmali fikr yuritish tendensiyasi sezilarli darajada ro‘y beradi. O‘smir nutqida murakkab sintaktik tuzilishga ega bo‘lgan jumlalar nis-

batan koʻp uchraydi, uning nutqi majoziy va ifodali boʻla boshlaydi. Oʻsmirlik davrida intensiv axloqiy va ijtimoiy shakllanish jarayoni sodir bo'ladi. Ammo dunyoqarashi, axloqiy ideallari, xatti-harakatlarida ustuvor bo'ladigan qadriyatlar tizimi, axloqiy tamoyillar o'rtoqlari ta'siri yoxud hayot ziddiyatlari tufayli osonlikcha yoʻq boʻlib ketishi ham mumkin. Bunda, shubhasiz, toʻgʻri tashkil etilgan taʼlim hal qiluvchi rol oʻynaydi. Oʻsmir shaxsiyati uning qanday axloqiy tajribaga ega boʻlishiga qarab shakllanadi.

Oʻsmirlarning axloqiy va ijtimoiy xulq-atvorida his-tuygʻular alohida oʻrin tutadi. Ular oʻz his-tuygʻularini zoʻravonlik yoxud taʼsirchan tarzda ifodalaydi. Ayniqsa, gʻazab kuchli boʻladi. Koʻp pedagog va psixologlar oʻsmirlikni ogʻir, inqirozli davr deb hisoblaydi. Bu oʻjarlik, xudbinlik, izolyatsiya, chekinish va gʻazablanishdan iborat boʻlishi mumkin. Shu bois, bu davrda oʻsmirlarning ruhiy dunyosi va his-tuygʻularining namoyon boʻlishiga gʻamxoʻrlik qilish juda muhim sanaladi. Oʻsmirlarning axloqiy ideali va ishonchi turli omillar taʼsirida shakllanadi va xilma-xil boʻladi. Ijobiy fazilatlar bilan bir qatorda notoʻgʻri, hatto axloqsiz gʻoyalar ham shakllanadi. Oʻsmir oʻgʻil bolalar kuchli, jasur va aqlli odamlarni oʻzlarining “kumiri” deb biladi. Oʻsmirlar ularga taqlid qilib, oʻzlari sezmagan holatda xavfli chegarani kesib oʻtadi, buning natijasida jasorat shafqatsizlikka, mustaqillik yolgʻonga, oʻzini hurmat qilish esa boshqalarga nisbatan zoʻravonlikka aylanadi. Oʻsmir qizlarda ham soxta ideallar koʻpaya boshlaydi. Ayrim oʻsmir qizlar fohishabozlik, foydaxoʻrlik, parazitlikni qoralamaydi, hatto qonunbuzarlar bilan tanishligidan faxrlanadi.

Oʻsmirlik davri poyonida maktab oʻquvchilari kasb tanlash muammosiga duch keladi. Aksariyat oʻsmirlar halol va vijdonli mehnatni yoqlab, oʻz kelajagiga masʼuliyat bilan yondashadi. Ammo keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar infantilizm, befarqlik va ijtimoiy yetuklik rivojlanib borayotganini tasdiqlamoqda. Hatto kelajakdagi hayotini mehnat bilan bogʻlashni istamaydigan oʻsmirlar borligi ham sir emas. Oʻqituvchi zamonaviy oʻsmir rivojlanishi va xulq-atvorining oʻziga xos xususiyatlarini chuqur anglashi, real hayotning eng murakkab va qarama-qarshi sharoitlarida oʻzlarini uning oʻrniga qoʻya olishlari kerak. Bu oʻsmirlarning oʻqituvchi, maktab va jamiyatdan uzoqlashib borayotgan begonalashuvini yengishning eng toʻgʻri yoʻlidir. Oʻrta maktab oʻquvchisi argumentni tushunishga, uning asosliligini tekshirishga va asosli dalillarga rozi boʻlishga qodir. Maktab hayotini insonparvarlashtirish, jamoani erkin tanlash, oʻz xohishiga koʻra faoliyat, oʻqish mavzusi, taʼlim muassasasini tanlash - bularning barchasi oʻsmirning oʻzini namoyon qilishi, oʻzi uchun muhim boʻlgan eʼtiqodni tasdiqlashi, tengdoshlari va kattalar bilan oʻzaro muloqot qilishi va ularni tushunishi uchun qulay

shart-sharoit yaratadi.

O‘spirinlik e’tiqod, xarakter va hayotda o‘z yo‘lini belgilash davri hisoblanadi. Yoshlik - bu o‘z-o‘zini tasdiqlash va anglashning tez o‘sishi, kelajakni belgilash, izlanish, orzu va umidlar davridir. Hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim sanalgan bilimga bo‘lgan ehtiyoj bugungi o‘rta maktab o‘quvchisining eng xarakterli xususiyatlaridan biridir. Bu aqliy jarayonlarning rivojlanishi va ishlashini belgilaydi. Idrok - maqsadga muvofiqlik, diqqat, o‘zboshimchalik va barqarorlik, xotira esa mantiqiy tabiati bilan tavsiflanadi. O‘rta maktab o‘quvchilari tafakkuri umumlashtirish va abstraksiyaning yuqori darajasi bilan ajralib turadi va u asta-sekin nazariy va tanqidiy yo‘nalishga ega bo‘la boradi. Yoshlik - barcha aqliy faoliyatning gullash davri. O‘rta maktab o‘quvchilari tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarining mohiyatiga kirib borishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirishga intiladi. Bu deyarli har doim o‘z nuqtai nazarini rivojlantirish, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z bahosini berish istagi bilan birga kechadi. O‘g‘il bolalar o‘smirlik davrida asosan jismoniy kuchni qadrlasa, o‘rta maktab o‘quvchilari esa intellektual fazilatlarni hurmat qiladi. Boshqalarga qaraganda, aqliy hushyorlik, topqirlik, muammoni chuqur his qilish va uni hal qilish uchun zarur bo‘lgan materialni tezda boshqarish qobiliyati qadrlanadi. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida shaxsni har tomonlama baholash qobiliyati shakllanadi. O‘spirinlar aqlli, yaxshi fazilatlar sohibi, jismonan barkamol, tashqi jihatdan jozibador va yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lgan odamlarga havas bilan qaraydi.

O‘rta maktab o‘quvchisida axloqiy va ijtimoiy fazilatlar tez sur’atlar bilan shakllanadi. Bunga nafaqat axloqiy kamolot davri, balki yangi muhit, faoliyat xarakterining o‘zgarishi, jamiyat va jamoadagi mavqei, muloqot intensivligi ham yordam beradi. Axloqiy tushuncha va baholar aniqroq bo‘lib, axloqiy e’tiqod mustahkamlanadi. Voyaga yetganlik hissi chuqurroq va o‘tkirroq namoyon bo‘ladi. O‘z shaxsini ifoda etish istagi kuchayadi, ba’zi yoshlarda bu istak eng yuqori darajaga ko‘tariladi. Ular qanday bo‘lmasin, boshqalar e’tiborini jalb qilish va o‘z shaxsini tasdiqlashni xohlaydi. O‘smirlik davrida jismoniy tuyg‘ularga e’tibor kuchayadi. Birinchi sevgi yoshlar uchun nafaqat hayotiy tajriba, balki ularni ko‘plab murakkab muammolarni amalda hal qilish ko‘nikmasini paydo qiladi.

O‘rta maktab o‘quvchilarida xulq-atvorning ongli motivlari mustahkamlanadi. Bu davrda, ayniqsa, shaxsning jamoadagi holati, jamoa a’zolari o‘rtasidagi muloqot va munosabatlar xarakteri muhim ahamiyatga ega. Jamoa odatda shaxsiy fazilatlarga “sayqal” beradi, to‘g‘rilaydi va ma’lum bir xususiyatlarni shakllantiradi. Jamoa ham salbiy, ham

ijobiy fazilatlarning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shishi mumkin. So‘nggi paytda jamiyatda yoshlar tashkilotlarining roli oshdi, ular o‘z dasturlariga ko‘plab o‘rta maktab o‘quvchilarini ham jalb etyapti. Yoshlarning mavjud voqelikka tanqidiy munosabati kuchaydi, baholash mezonlari, o‘qituvchi va kattalarga qo‘yiladigan talablar ortdi.

Kasb tanlash arafasida turgan o‘rta maktab o‘quvchilari hayotiy rejasi, qiziqish va niyatlari keskin farq qilishi bilan ajralib turadi. To‘g‘ri, har bir inson hayotda o‘z o‘rnini topishni xohlaydi. Ishla, yaxshi pul top va baxtli oilaga ega bo‘l. So‘nggi yillarda kasblar “nufuzi” qayta baholanib, yangi iqtisodiy sharoitlarga o‘tish jarayoni yoshlarni tashvishga solib kelayotgani sir emas. Yaxshi kasb - bu o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish va yaxshi pul topish mumkin bo‘lgan kasbdir. Ta’lim maqsadi kelajakda inson uchun asqotadigan umumiy va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish hisoblansa, tarbiyaning maqsadi esa umumiy va maxsus xulq, fe’l-atvor shakllarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablari o‘quvchilari xulq va fe’l-atvorini tarbiyalashda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/4676839

2. Najot tarbiyada/X.Ibrayimov, M.Quronov, F.Boqiyev. - Toshkent, "Noshir”, 2024. 62 b.

3. G‘oziyev, E. Ontogenez psixologiyasi: Nazariy-eksperimental tahlil. Toshkent: Noshir. 2010.

4. МахмудовА.Х.,Фефелов В.С.,КамиловаА.Б.Инновационные пути педагогического прорыва //Современное образование [Узбекистан). - 2019. - №. 6 [79]. - С. 3-9.